



## MILLIY O‘ZLIK TUSHUNCHASI

**Djumayeva Baxtiniso Turakulovna,**

*Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada milliy o‘zlik tushunchasining falsafiy, sotsiologik, adabiy talqini o‘rganilgan. Shuningdek, milliy o‘zlikning shakllanishida tarixiy meros, til, adabiyot, milliy qadriyatlar va ma’naviy boyliklarning ahamiyati tahlil qilingan. Bundan tashqari, o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik masalasining aks etishi xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, jadid va zamonaviy adabiyot misolida yoritilgan.

**Abstract:** This article studies the philosophical, sociological, and literary interpretation of the concept of national identity. It also analyzes the importance of historical heritage, language, literature, national values, and spiritual wealth in the formation of national identity. In addition, the reflection of the issue of national identity in Uzbek literature is highlighted on the example of folk oral literature, classical, modern, and contemporary literature.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается философская, социологическая и литературная интерпретация концепции национальной идентичности. Также анализируется значение исторического наследия, языка, литературы, национальных ценностей и духовного богатства в формировании национальной идентичности. Кроме того, на примере народной устной литературы, классической, современной и новейшей литературы освещается отражение вопроса национальной идентичности в узбекской литературе.

**Kalit so‘zlar:** milliy o‘zlik, milliy ong, milliy qadriyat, falsafiy talqin, sotsiologik talqin, badiiy talqin.

### **Kirish**

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonda milliy o‘zlikni anglash va uni asrash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir elning milliy ruhi uning tili, tarixi, adabiyoti, madaniyati, urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlar orqali namoyon bo‘ladi. Milliy o‘zlik esa ana shu vositalar yordamida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-ma’naviy hodisadir. Insonning ma’lum bir millatga mansub ekanini his qilishi, qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va tarixiy xotirani unutmazligi jamiyat taraqqiyotining eng muhim sabablaridan biridir. mazkur maqolaning maqsadi milliy o‘zlik tushunchasining falsafiy, badiiy, sotsiologik talqinlarini o‘rganish va o‘zbek adabiyotida uning badiiy ifodalanish xususiyatlarini yoritishdan iborat.

### **Adabiyotlar tahlili**

Milliy o‘zlik masalasi har bir xalqning ma’naviy hayoti, tarixiy taraqqiyoti, madaniy xotirasi bilan uzviy bog‘liq tushunchadir. Har bir shaxs o‘zini ma’lum bir millat vakili sifatida tushunib yetgan vaqtdan boshlab unda milliy g‘urur, milliy ong hamda milliy qadriyatlarga sodiqlik shakllanib boradi. Ayniqsa, bugungidek jadal rivojlanish asosida kechayotgan

hayotimizda milliy o'zlikni anglash, asrab-avaylash, kelajak avlodga ham yetkazish masalasini o'ta muhim ijtimoiy va ma'naviy vazifalardan biri deyish mumkin. Millatimiz asrlar davomida o'ziga xos tarixi, shuningdek, til, adabiyot, urf-odat va an'analar asosida o'z milliy qiyofasini shakllantirib kelgan. Bu kabi fazilatlar xalq og'zaki ijodi namunalarida, mumtoz va jadid adabiyotida, shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyotida yorqin aks etgan desak xato bo'lmaydi. Shu tufayli milliy o'zlik tushunchasini falsafiy, sotsiologik va adabiy nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlari inson kamolotini jamiyat va millat manfaatlari bilan bog'liq holda e'tirof etganlar. Jumladan, buyuk alloma Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri"<sup>16</sup> asarida jamiyat taraqqiyoti ma'naviy komillikka erishgan odamlar bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Uning e'tirof etishicha, insonning komilligi uning jamiyat va xalq oldidagi mas'uliyatini his etishi bilan belgilanadi.

Falsafiy nazariyaga ko'ra, o'z milliy ildizlarini unutgan jamiyat ma'naviy inqirozga yuz tutadi. Shu sababli ham milliy o'zlikni saqlash har bir xalqning, millatning dunyoda mavjud ekanini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Sotsiologiyada esa milliy o'zlik jamiyat a'zolarining tarix, til, adabiyot va qadriyatlar vositasida birlashuvi sifatida talqin qilinadi. Bu tushuncha ijtimoiy ong shakli sifatida xalqning o'ziga xosligini ifodalaydi.

Milliy o'zlikning shakllanishida quyidagilar muhim omil bo'lib xizmat qiladi: til, tarix, urf-odat, an'analar, din va madaniyat.

Sotsiologik jihatdan qaraganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy o'zlikni tiklash va rivojlantirish jarayoniga jiddiy e'tibor qaratildi. Ajdodlarimizdan qolgan tarixiy meroslarni o'rganish, xalqimizga xos milliy qadriyat, urf-odat, an'analarni tiklash hamda ulug' ajdodlar xotirasini abadiylashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani hech kimga sir emas.

Globallashuv jarayonida ayrim ommaviy madaniyat unsurlari milliy qadriyatlarga salbiy ta'sir etishi – tabiiy hol. Shu bois yosh avlod ongida milliy o'zlikni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ana shunday murakkab sharoitda adabiy asarlar o'ziga xos vazifa bajaradi, negaki adabiyot milliy o'zlikni ifodalovchi eng asosiy vositalardan biridir. Har bir xalqning psixologik holati, orzu-umidlari, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va tarixiy xotirasi, avvalo, uning adabiyotida aks etadi. O'zbek adabiyotida ham milliy o'zlik masalasi ijodkorlar tomonidan turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalarida ham milliy ruh yetakchilik qiladi. Dostonlar, maqollar, ertak va qo'shiqlarda xalqning milliy qiyofasi aks etadi. Xususan, "Alpomish"<sup>17</sup> dostonida o'zbek xalqining jasorati, sadoqat va vatanparvarlik haqidagi qarashlari aks etgan.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari xalqning ma'naviy olamini boyitish uchun astoydil harakat qilganlar. Bu o'rinda Nosiruddin Rabg'uziy, Sayfi Saroyi, Alisher Navoiy, Zahiriddin

<sup>16</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 2004-yil.

<sup>17</sup> Xalq dostoni. Alpomish. Toshkent, 2010-yil.



Muhammad Bobur, Mashrab, Abulg‘ozi Bahodirxon kabi ijodkorlarni eslash joiz. Xususan, mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodida ham milliy o‘zlik masalasi muhim o‘rin tutadi. Ulug‘ ajdodimiz turkiy tilning boy imkoniyatlarini namoyon etib, milliy adabiy tafakkur taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning “Muhokamat ul-lug‘atayn”<sup>18</sup> asari turkiy til qudratini ilmiy asoslash orqali milliy o‘zlikni mustahkamlashga harakat qilgan bo‘lsa, “Arbain”<sup>19</sup> asari diniy qadriyatlarga xos milliy urf-odatlarini asoslashga xizmat qilgan.

### **Xulosa**

Milliy o‘zlik xalqning tarixiy xotirasi, tili, madaniyati va ma‘naviy qadriyatlari asosida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-ma‘naviy hodisadir. Uni falsafiy insonning o‘z millatiga mansublik hissi, sotsiologik jihatdan esa jamiyatning umumiy qadriyatlar asosida birlashuvi sifatida talqin qilish mumkin.

O‘zbek adabiyoti milliy o‘zlikni ifodalash va rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mumtoz adabiyotdan tortib zamonaviy ijodkorlargacha bo‘lgan adabiy meros xalqning milliy ruhini, tarixiy xotirasini va ma‘naviy qadriyatlarini aks ettirib kelmoqda. Ayniqsa, Navoiy, Bobur, jadid adiblari hamda mustaqillik davri yozuvchilari ijodida milliy o‘zlik g‘oyasi yetakchi mavzulardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday ekan, milliy o‘zlikni asrash va rivojlantirish har bir jamiyatning ma‘naviy taraqqiyoti uchun zarur omil hisoblanadi. Adabiyot esa bu jarayonda xalqning ma‘naviy xotirasini saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi muhim vosita bo‘lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xalq dostoni. Alpomish. Toshkent, 2010-yil.
2. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 20 jildlik, 8-jild. Toshkent, 2001-yil.
3. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 20 jildlik, 16-jild. Toshkent, 2001-yil.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent, Sharq, 2002.
5. Vohid Zohidov. Boburning hayoti va ijodi haqida // “Boburnoma”ga so‘zboshi.
6. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent, 2020.
7. Xayriddin Sultonov. Saodat sohili. – Toshkent, 2005.
8. H.Qudratullayev. “Boburnoma”ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili. Toshkent, 1998.
9. Qozaqova S.S, “Boburnoma” asari syujeti va kompozitsiyasining structural tahlili, fil.fan.fal.dok. dissertatsiyasi, Namangan, 2025.
10. Z.M.Bobur. “Boburnoma”, T., 2002-yil. 19-b. Nashrga tayyorlovchi – Saidbek Hasanov.

<sup>18</sup> Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 20 jildlik, 16-jild. Toshkent, 2001-yil.

<sup>19</sup> Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar, 20 jildlik, 16-jild. Toshkent, 2001-yil.

